UBAYDIY HAYOTI VA IJODIGA OID MANBALAR

Rajavaliyev Boburjon Dilshodjon o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya
Mazkur tezisda XVI asr o‘zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo‘lgan Ubaydiyning hayoti va ijodiy faoliyati yoritiladi. Shoirning adabiy merosi, uning o‘zbek mumtoz adabiyoti taraqqiyotidagi o‘rni hamda turkiy she’riyat rivojiga qo‘shgan hissasi tahlil qilinadi. Ubaydiy asarlarida aks etgan tasavvufiy, axloqiy va ma’rifiy g‘oyalar, shuningdek, ularning badiiy ifoda xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijasida Ubaydiy ijodining o‘zbek adabiyoti tarixidagi ahamiyati, uning keyingi davr adabiy jarayonlariga ta’siri va milliy adabiy merosdagi o‘rni ochib beriladi.

Kalit so‘zlar. *Ubaydiy, mumtoz o‘zbek adabiyoti, Shayboniylar davri, adabiy meros, g‘azal, tasavvuf, turkiy she’riyat, badiiy mahorat, adabiy an’ana, ma’naviy-ma’rifiy qarashlar, o‘zbek adabiyoti tarixi, poetika.*

KIRISH

16-asrdagi o‘zbek adabiyoti faqat oldingi davrdagi an’analarni davom ettirib qolmay, orginallikda, mazmunan va shaklan yangi asarlarni maydonga keltirishda real hayotga yana-da yaqinlashib bordi-ki, bu o‘z navbatida hayotni tasvirlashda romantik tasvir uslubidan ko‘ra, realistik tasvir uslubining ustunlasha borishiga hamda badiiy asar tilining soddalashuvi –xalqchillashuviga olib keldi.

Markaziy Osiyo adabiy hayoti va tarixida sezilarli iz qoldigan Ubaydiyning to‘liq ismini tarixchilar Ubaydulloxon ibn Mahmud Sulton ibn Budog‘ Sulton ibn Abulxayrxon deb qayd etganlar [1,94a]. Ubaydiy 1487-yilda (hijriy 892-sana) Muhammad Shayboniyxonning Xorazmni egallash uchun olib borayotgan urushlari vaqtida Vazir shahri yaqinidagi Yamani Tirsak mavzeida dunyoga kelgan. Ubaydulloh tavallud topganda, otasi Mahmud Sulton piri komili Xoja Ahror Valiydan chaqaloqqa ism qo‘yib berishini iltimos qiladi, Xoja Ahror unga iltifot ko‘rsatib chqaloqqa o‘z ismini beradi [2, 18]. “O‘z nomlarini berishlari ul zotning zo‘r marhamatlaridan bo‘libdiki, shuning uchun ham uning bebaho asarlari va yaxhi nomlarining oqibatlari foniy olamda boqiydir”[3,59], deb yozadi Hofiz Tanish Buxoriy. Tarixiy manbalarda ham Ubaydullaxon to‘g‘risida shunday firklar keltirilgan: “Bu adolatpanoh, zafardastgoh xon ilm-u san’atlarni egallagan, sgariatva adolat yoyguvchi, rabboniy ilmlarni saltanat ishlari va podshohlik bilan birga qo‘shib olib boruvchi podshoh bo‘lib, Abulxayrxon sulolasi sultonlarining aql-u farosat, fahm-u idrok, yaxshi xulq va odob-ikromda boshi edi” [4,132]. Ubaydullaxon o‘z davrining yetuk olimlaridan, jumladan, Abdulla Yamaniy, Xoja Muhammad Sadr, Xoja Mullo Isfahoniy, Mavlono Mahmud Azizon, Mavlono Yormuhammadqorilardan ta’lim-tarbiya oladi [5,7]. Shu bois ham u 7 xil husnixatda qalam yuritar, ayniqsa, nas’h xatini hammadan yaxshi yozar edi. “Kalomulloh”dan bir nusxa ko‘chirib, Haramayni Sharifayniga jo‘natgan edi [2, 19]. U yoshligidan barcha fazilatlar bilan bezangan bo‘lib [6, 400], zamonasining muhaddislari savari Xoja Mavlono Isfahoniydan hadis ilmini, faqihlar peshvosi Mavlono Mahmud

Azizondan fiqh ilmini, mashhur hofizi Qur’on Yormuhammadqoridan qiroatni o‘rganadi [5,7]. Ubaydiyning Qur’oni Karimga bo‘lgan muhabbati qanchalik yuksakligini, uni nash xatida ko‘chirganidan tashqari, unga turkiy tilda tafsir yozganidan ham bilish mumkin. Uning bu xizmati haqida Hasanxo‘ja Nisoriy: “Fazilatlarining eng yashi kjo‘rsatkichlaridan biri –u Qur’on mutolaa va qiroatini osonlashtirish uchun turkiy tilda yozgan Qur’on tafsirikim, dalillari suyanadigan asosda bitilgan…” [7, 27] –deydi. Yuqoridagi ma’lumotlar Ubaydiyning diniy ilmlar bilan chuqur shug‘ullanganligini ko‘rsatish bilan birga, egallagan bilimlarini tasavvuf ta’limoti orqali badiiy ifodalaganligini ham ko‘rsatadi. U tasavvuf bobidagi ta’limni avvalo otasining piri bo‘lgan Mavlono Muhammad Qozidan o‘rgangan. Keyin uning xalfasi –naqshbandiylik tariqatining ko‘zga ko‘ringan vakili Maxdumi A’zamga shogird tushgan. Shuningdek, Mir Arab nomi bilan mashhur bo‘lgan Amir Abdulla Yamaniyga Ubaydullohning e’tiqodi baland bo‘lgan, shu bilan birga, Mir Arab ham unga ma’naviy ustozgina bo‘lib qolmay, davlat ishlari va harbiy masalalarda ham maslahatlar berib turgan.

1504-yilning oxirlarida Mahmud Sulton Qunduz shahrida vafot etadi. Shayboniyxon o‘z ukasining jasadini Samarqandga olib kelib dafn etganidan so‘ng, 18 yoshli jiyani Ubaydullohni Buxoro taxtiga hukmdor etib tayinlaydi. Ubaydiyning taxtga chiqishiga ko‘pchilik ilm-fan va adabiyot namoyondalari katta umid bilan qarashdi. Bu haqida o‘sha davr tarixchilaridan Mahmud ibn Vali Ubaydiyni “ U o‘z zamonasining No‘shiravoni” deb ta’tiflaydi [2, 21]. “Tarixi Rashidiy” asari muallifi Mirzo Haydar Ubaydiyning taxtga o‘tirgan paytini quyidagicha ta’riflaydi: “U hamma yaxshi xislatlarni o‘zida mujassamlashtirgan podshoh erdi… u xizmat qilib turgan Buxoro xalqining yaxshi va fozilligi, farovonligi jihatidan Hirotni va Husayn Mirzo zamonini eslatadi…” [2, 23] Ubaydiy Buxoro taxtiga o‘tirgan yili Shayboniyxon Xorazmga yurish qilishni boshlaydi. Bu yurishda Ubaydulloh ham ishtirok etib, Xorazmni egallash uchun olib borilgan jangda u jasur, tadbirkor, mohir sarkarda sifatida ham taniladi. Ubaydiy Shayboniyxon vafotidan keyin yurtimizga bostirib kirgan Eron jangchilariga qarshi amakivachchasi Temur Sulton bilan birgalikda mardonavor kurashib, yurtimiz mustaqilligini saqlab qolgan vatanparvar sarkarda edi.

Ubaydiy taxtga erishganidan keyin ham ilm-fan, ma’rifat va madaniyatga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirmadi. Ubaydiy adolat va saxovatini, birinchi navbatda, yurt obodligi, xalq farovonligi, ilm-fan, san’at, adabiyot rivojiga va shu soha kishilarining taqdiriga jiddiy e’tibor qaratdi. Ubaydullohxon umrining ko‘p qismini siyosiy va harbiy yurishlarda o‘tkazgan bo‘lsa ham, ilm-fan, adabiyot, she’riyat taraqqiyoti uchun o‘zining barakali hissasini qo‘sha olgandir.

1540-milodiy (hijriy 945-946-sana) yilda badanida paydo bo‘lgan kasallikdan Ubaydiy vafot etdi. U Xoja Naqshbandiy qabrining oyoq uchi tomoniga dafn etilgan [2, 27].

Ubaydiyning hayoti va ijodiy faoliyati bilan qiziqish uning hayotlik davridayoq boshlangan. Jumladan, Fayzulloh ibn Ro‘zbexonning “Mehmonnomai Buxoro”, Zayniddin Vosifiyning “Badoye ul-vaqoe”, Mirzo Haydarning “Tarixi Rashidiy”, Mahmud ibn Valining “Bahr ul-asror”, Sayyid Roqimning “Tarixi Roqimiy”, Kamoliddin Binoiyning “Shayboniynoma”, Hasabxo‘ja Nisoriyning “Muzakkiri Ahbob”, Hofiz Tanish Buxoriyning “Abdullanoma”, Faxri Hirotiyning “Ravzat us-salotin”, Mutribiyning “Tazkirat ush-shuaro”, Muhammad Yusuf Munshiyning “Tarixi

Muqimxoniy”, Sharofiddin Roqimning “Tarixi tomm”, Mahdumi A’zamning “Tanbiyat us-salotin” kabi asar va tazkiralarda Ubaydiyning hayoti, ijtimoiy-siyosiy va adabiy faoliyatiga aloqador ma’lumotlar qoldirilgan. Keyingi asrlarda ham Ubaydiy adabiy faoliyati qiziqish boshlangan. XX asrning 20-yillariga kelib, dastlab, turk olimi Fuad Ko‘prulu Ubaydiy haqida fikr yuritgan bo‘lsa, keyinchalik Abdurauf Fitrat, Olim Sharofiddinov, Suyima G‘aniyeva, Muhammadjon Abdullayev, Nodirxon Hasan, Islombek Mannopovlar ham o‘z tadqiqotlarida Ubaydiy ijodiga to‘xtalib o‘tishgan.

Mashhur turk olimi Fuad Ko‘prulu Ubaydiy “Qiroati Qur’on, tafsir, hadis va fiqh kabi islomiy ilmlarni mukammal egallagan, arabcha va forsiyni she’r yozish qadar yaxshi bilgan, badiiy san’atlarga kuchli qiziqish ko‘rsatgan, hatto xattot va musiqashunos” ma’rifatli shoh va iste’dodli shoir sifatida ta’riflaydi.[8, 169] Haqiqatda ham Ubaydiy ilm-ma’rifatli, saviyasi baland shoi ham bo‘lgan. U “Ubaydiy” va “Qul Ubaydiy” taxalluslari bilan she’r va hikmatlar yozgan. Badiiy ijod bilan erta shug‘ullangan Ubaydiy asarlarida Yassaviy hikmatlaridan ta’sirlanish yaqqol ko‘zga tashlandi. Bu haqida Yassaviyshunos olim Nodirxon Hasan Shayboniyxon va Ubaydullohxonning Yassaviyga ergashib yozgan she’r va hikmatlarini XVI asr o‘zbek adabiyotidagi “yassaviy an’analari” sifatida tatqiq etgan. O‘zbek olimlari orasida Ubaydiy haqida birinchilardan bo‘lib, Abdurauf Fitrat qimmatli ma’lumotlar bergan. U o‘zining “Ahmad Yassaviy maktabi shoirlari to‘g‘risida tekshirishlar”, “XVI asrdan so‘ng o‘zbek adabiyotiga bir qarash” kabi maqolalarida Ubaydiyga alohoda to‘xtalib o‘tadi. “O‘rta Osiyo adabiyotining islomdan so‘nggi maktablari orasida Yassaviy maktabi juda nufuzli va katta o‘rin tutadir”, -deydi. Bu maktab vakillarini sanar ekan Ubaydiy haqida quyidagi fikrlarni aytadi: “Qul Ubaydiy Ubaydiy taxalluslari bilan hikmat yozgan bu odam mahhur o‘zbek xoni Ubaydullohdan boshqa kishi emas. U odam yigirma sakkiz yil hukumatni boshqardi va milodiy 1539-yilda vafot etdi (Ba’zi manbalarda uning vafot etgan yili 1540 deya ko‘rsatiladi –B.R). Bu odam o‘zining hukumat ishlariga qaramasdan shayxlik ham qilar edi.” Yuqorida ta’kidlaganimizdek, Ubaydiy diniy ilmlarni ham puxta egallaganligini va buning natijasida o‘z postiga ham ega bo‘lganligini Fitrat ham ta’kidlamoqda. Bundan tashqai Fitrat Ubaydiyning tariqat maslagiga ham to‘xtalib o‘tadi. “Ubaydullohning tariqat nisbati Avliyo Qoraxon otli bir shayx vositasi bilan Hakim Sulaymon Otaga boradir.” Ubaydiy jahr majlislariga ham qatnashganligini aytadi. Bundan uning Yassaviy tariqatiga aloqasi borligini anglashiladi. Fitrat Ubaydiyning yassaviylik tariqati bilan chambarchas bog‘liqligin aytib, dalil sifatida quyidagi fikrlarni aytadi. “Ubaydullohning Yassaviylar bilan juda qattiq bog‘langanligiga yana bir dalil yassaviy shayxi Xudoydodning muridi Muhammadiyor No‘g‘ay otaga o‘z qizini bergan. [9, 35]”

Fitrat Ubaydullohning ijodiga ham alohida to‘xtalib o‘tgan. “Ubaydulloh mutasavvif shoirdir. Uning yaxshi she’rlar yozgani “Muzakkiri ahbob”, “Majma ul-fusaho”, “Tazkirat us-salotin” kabi asarlardan ma’lum. Ubaydulloh forsiycha she’rlariga ko‘proq Ubaydiy, ba’zan Ubaydulloh taxallusini qo‘llagan.” Fitrat Ubydullohning o‘z davrida topilgan “Devoni” haqida ham aytib o‘tgan. “Yaqinda Buxoroda topilgan “Devoni” uning Navoiy maktabiga ergashib turkiy g‘azallar, Yassaviy maktabiga ergashib hikmatlar yozganini ham ochiq isbot qilgan bo‘ldi. [9, 35]”

Keyingi yillarda olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida Ubaydiyning she’riy merosi bir necha qo‘lyozma devonlar shaklida Turkiya, O‘zbekiston, Eron va Rossiya kutubxonalari fondlarida saqlanayotgani aniqlandi. Mazkur qo‘lyozmalar shoir ijodining ko‘lami, janriy rang-barangligi hamda badiiy xususiyatlarini yanada chuqurroq o‘rganish imkonini bermoqda. Qo‘lyozma manbalar asosida tayyorlangan nashrlar, jumladan, *“Vafo qilsang...” “Hikmatlar”* kabi to‘plamlar Ubaydiy adabiy merosini keng kitobxonlar ommasiga yetkazish, shuningdek, ilmiy tadqiqotlar uchun ishonchli matniy asos yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ubaydiy ijodini o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatadiki, u nafaqat davlat arbobi va hukmdor, balki o‘z davrining yetuk shoiri sifatida ham o‘zbek mumtoz adabiyoti taraqqiyotiga salmoqli hissa qo‘shgan. Uning she’rlarida tasavvufiy-falsafiy qarashlar, insoniy fazilatlar, ishq va sadoqat, axloqiy-ma’rifiy g‘oyalar yuksak badiiy mahorat bilan ifodalangan. Shoirning turkiy tilda yaratgan asarlari o‘zbek adabiy tilining rivojlanishiga, mumtoz she’riyat an’analarining boyishiga xizmat qilgan.

Shunday qilib, Ubaydiyning hayoti va ijodiy merosi o‘zbek adabiyoti tarixining muhim sahifalaridan birini tashkil etadi. Uning qo‘lyozma devonlarini aniqlash, qiyosiy o‘rganish va ilmiy-tanqidiy matnlarini yaratish kelgusidagi adabiyotshunoslik tadqiqotlarining dolzarb yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Bu esa Ubaydiy merosining milliy ma’naviyat va adabiy tafakkur taraqqiyotidagi o‘rnini yanada to‘liq ochib berishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘z FA ShI qo‘lyozmasi. Inv. №4538. 94a-varaq
2. Абдуллаев М. Убайдий ҳаёти ва адаби фаолияти. Номзодлик дисс. –Тошкент, 2000.
3. Ҳофиз Таниш Бухорий. Абдулланома. 2 жилдлик. 1-жилд – Тошкент, 1999.
4. Муҳаммадёр ибн Араб Қатаған. Муссаххир ал-билод. Тошкент, 2009.
5. Мирзаев Б. Убайдуллоҳхон –Шайбонийлар давлатининг ҳукмдори. Тошкент: Mumtoz so‘z. 2016.
6. Муҳаммад Ҳайдар Мирзо. Тарихи Рашидий. –Тошкент: Шарқ, 2010.
7. Ҳасанхўжа Нисорий Музаккири аҳбоб. Тошкент, 1993.
8. Ko‘prulu F. Adabiyotga doir tadqiqotlar. 2-jild. –Istanbul: 1989.
9. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар 2-жилд. -Тошкент, Маънавият, 2000.